



QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSiya LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI VA UNGA OID TAHLILIY TENDENSIYALAR

ANALYSIS OF FINANCING MECHANISMS AND TRENDS IN AGRICULTURAL INVESTMENT PROJECTS

¹*Yusufjonov Ravshanbek
Rustamjon o'g'li*

¹*Namangan davlat texnika universiteti*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti va so'nggi yillardagi tahliliy tendensiyalar kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Qishloq xo'jaligining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va bandlikni oshirishdagi strategik roli asosida investitsiya faoliyatini samarali moliyalashtirish zaruriyati asoslab beriladi. Moliyalashtirish manbalari – bank kreditlari, davlat mablag'lari, xalqaro institutlar resurslari va xususiy investitsiyalar tarmoq rivojiga ta'siri bilan birga tahlil qilinadi. Shuningdek, sohada mavjud risk va to'siqlar, xorijiy tajriba hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari investitsion muhitni yaxshilash va qishloq xo'jaligida uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Eng. - This article examines the practice of financing investment projects in agriculture and analyzes recent trends using a comprehensive approach. It substantiates the necessity of effective financing of investment activities, given the sector's strategic role in ensuring economic stability, strengthening food security, and increasing employment. The analysis covers financing sources such as bank loans, public funds, resources from international institutions, and private investments, assessing their impact on agricultural development. The study also identifies existing risks and barriers in the sector, explores international experience, and proposes conceptual approaches to improving financing mechanisms. The findings serve as a practical basis for enhancing the investment climate and achieving long-term sustainable development in agriculture.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *xorijiy investitsiya, moliyaviy xavf, investitsion loyihalar, qishloq xo'jaligi, YaIM, moliyalashtirish, strukturaviy transformatsiya.*
❖ *foreign investment, financial risk, investment projects, agriculture, GDP, financing, structural transformation.*

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda qishloq xo'jaligi tarmog'i nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini kafolatlashda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki, FAO, va boshqa xalqaro tashkilotlar prognozlariga ko'ra, yaqin yillarda dunyo aholisining ortib borishi va iqlim

o'zgarishlari fonida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab keskin oshadi. Bunday sharoitda mazkur tarmoqda investitsiya faolligini kuchaytirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimi – bu resurslarning jalb etilishi, taqsimlanishi, boshqarilishi va ularning samaradorligi bilan bog'liq kompleks iqtisodiy-moliyaviy mexanizmdir. Mazkur mexanizmning samarali ishlashi qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy logistika va saqlash tizimlarini shakllantirish, hamda qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash imkonini beradi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida ham qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezident farmon va qarorlari asosida yer munosabatlari isloh qilinmoqda, agroklastlar tizimi kengaytirilmoqda, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar moliyalashtirilmoqda. Shunga qaramay, sohaga xos bo'lgan moliyaviy xavflar, bank kreditlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi, uzoq muddatli investitsiyalar uchun kafolatlarning yetarli emasligi, xususiy investorlar ishtirokining past darajada bo'lishi – mavjud muammolar sirasiga kiradi [1].

Ushbu maqola doirasida qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari hamda tahliliy tendensiyalari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinib, xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos keladigan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu orqali mazkur tadqiqot mamlakat agrar sektorining investitsion muhitini yaxshilash va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasi global miqyosda ko'plab olimlar, xalqaro tashkilotlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan

chuqur o'rganilgan. Ushbu bo'limda mazkur sohada olib borilgan asosiy ilmiy tadqiqotlar, konseptual yondashuvlar va mavjud tahliliy yondashuvlar sharhlanadi.

Jahon bankining (2021) "Agricultural Finance and Investment in Emerging Markets" nomli hisobotida qishloq xo'jaligi sohasiga xos moliyalashtirish mexanizmlari, kredit riski, subsidiyalar samaradorligi va davlat-xususiy sheriklik modellari muhim tahlil qilingan. Ushbu manbada agrar tarmoq uchun moliyaviy xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun, muammoli jihat sifatida qayd etilgan [2].

FAO (2020) tomonidan chop etilgan "The State of Food and Agriculture" yillik hisobotida esa oziq-ovqat xavfsizligi, investitsiya oqimlari va texnologik modernizatsiyaning o'zaro bog'liqligi keng yoritilgan. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar faqat ishlab chiqarish hajmini emas, balki infratuzilma va bozor integratsiyasini ham mustahkamlashi zarurligi ta'kidlanadi [3].

Xorijiy olimlar Smith va Thomas (2020) tomonidan yozilgan "Investment Strategies in Agribusiness: Finance, Risk and Innovation" nomli monografiyada agrar tarmoqda investitsiyaviy risklarni kamaytirish, moliyalashtirish strategiyalarini muvozanatlash va innovatsion yondashuvlar orqali loyihalarni barqaror qilish metodlari chuqur tahlil qilingan [4].

Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Mamatqulov B. (2022) o'zining maqolasida qishloq xo'jaligida investitsiya samaradorligini baholashda qo'llaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimli ko'rib chiqadi va rentabellik, IRR, NPV kabi indikatorlarning ahamiyatini asoslaydi. Bu tadqiqot ilmiy metodik jihatdan amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi [5].

Qodirov A. (2023) esa davlat-xususiy sheriklikning qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi roli, normativ asoslar va

xususiyl sektorini jalb qilishdagi mavjud cheklolvarni ko'rsatgan. Uning tadqiqoti O'zbekistonda agroklastarlar tizimining moliyaviyl barqarorlikka ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, maqola mavzusi uchun bevosita bog'liq empirik asoslar yaratadi [6].

Osiyo taraqqiyot banki (ADB, 2022) esa Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan, O'zbekistonda qishloq infratuzilmasiga yo'naltirilgan moliyaviyl resurslar samaradorligi, subsidiya tizimi va grant dasturlarini iqtisodiy tahlil qilish orqali moliyaviyl islohotlar zaruratini ko'rsatgan [7].

Shuningdek, IFAD (2021) tomonidan tayyorlangan "Rural Development Report"da qishloq aholisi farovonligini oshirish uchun moliyalashtirish vositalarining ta'siri, moliyaviyl inklyuziya va kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng yoritilgan [8].


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tuzilmasida yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, u mamlakat ichki bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, eksport salohiyatini saqlab qolish hamda aholi bandligini oshirishda muhim strategik rol o'ynaydi. Ushbu tarmoqning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun esa zamonaviyl texnologiyalarni keng joriy etish, yer unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Davlat dasturlari, tijorat banklari, xalqaro moliyaviyl tashkilotlar va xususiyl investorlarning faol ishtiroki asosida samarali moliyaviyl mexanizmlar shakllantirildi. Ayniqsa, paxtachilik, sabzavotchilik, meva yetishtirish bo'yicha klaster tizimlari, zamonaviyl ko'chatxonalar, chorvachilik va parrandachilik komplekslari, shuningdek, yuqori darajada qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni moliyaviyl qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YoIMdagi ulushi (foizda) [8]

Grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligining YoIM-dagi ulushi so'nggi besh yil mobaynida muntazam

pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich 24,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 19,2% ga tushgan, ya'ni

4,9 foiz punktga kamaygan. Bu pasayish bir tekisda bo'lgan — har -yili taxminan 1 foiz punktdan kamayib borgan. Bunday barqaror pasayish tasodifiy emas, balki mamlakatda yuz berayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning natijasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi qisqarib borayotgani, asosan, mamlakat iqtisodiyotining boshqa ustuvor yo'nalishlari — jumladan, sanoat va xizmatlar sohalarining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi. Ushbu holat iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasini, ya'ni agrar iqtisodiy modeldan sanoat-xizmatlar yo'nalishiga o'tishni aks ettiradi. Bu jarayon rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun tabiiy bosqich bo'lib, iqtisodiy diversifikatsiya, texnologik yangilanish va bandlikning sektoral qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining mutlaq hajmi ko'payishda davom etsa-da, umumiy iqtisodiy o'sish fonida uning nisbiy salmog'i kamaymoqda. Bu jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lum bo'lgan umumiy qonuniyatdir — mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanib borgani sari, qishloq xo'jaligining YaIM-dagi ulushi odatda kamayib boradi, garchi uning mutlaq hajmi o'sishi mumkin bo'lsa ham. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligini oshirish

zaruratini keltirib chiqaradi. 2020-2024-yillar oralig'idagi pasayish sur'ati (har yili o'rtacha 1,2%) o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun o'rtacha ko'rsatkichlar doirasida joylashgan, bu esa iqtisodiy transformatsiya jarayonining nisbatan barqaror kechayotganidan dalolat beradi. Biroq, bu ko'rsatkichlar mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasi bilan bog'liq muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, qishloq xo'jaligining mehnat unumdorligi, modernizatsiya darajasi, sarmoyalarning etarli emasligi kabi masalalar hal qilinishi zarur.

Kelgusida O'zbekiston hukumati tomonidan qishloq xo'jaligi sohasini barqaror rivojlantirish bo'yicha kompleks strategik yondashuv ishlab chiqilishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushining qisqarishi mamlakat iqtisodiy tizimining sektorlararo diversifikatsiyasi va xizmatlar hamda sanoat tarmoqlarining jadal o'sishi bilan izohlanadi. Biroq, bu sektor hanuzgacha mamlakat aholisi uchun asosiy bandlik manbai bo'lib qolmoqda, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati [8]


Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yil yakuni bo'yicha qishloq,

o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlarida 3,1 foiz darajasida ijobiy o'sish sur'ati qayd etildi.

Taqqoslash uchun aytish mumkinki, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 4,1 foiz, 2022-yilda 3,6 foiz, 2021-yilda 4,0 foiz va 2020-yilda 2,9 foiz ni tashkil etgan. Hisobot yilida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hamda xizmatlarining umumiy hajmi 467 041,5 milliard so'mga yetdi. Umumiy hajmning asosiy qismini, ya'ni 96,6 foizini dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu yo'nalishlarga oid xizmatlar tashkil etgan bo'lsa, o'rmon xo'jaligi 2,5 foiz, baliqchilik xo'jaligi esa 0,9 foiz ulushga ega bo'ldi. 2024-yilda tarmoqda kuzatilgan ijobiy o'sish ko'rsatkichlari asosan dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ularning xizmatlari bo'yicha 3,1 foizlik o'sish, shuningdek, o'rmon xo'jaligidagi 3,0 foizlik o'sish bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Yalpi mahsulot hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 150 493,7 milliard so'mdan 2024-yilga kelib 266 565,0 milliard so'mga yetgan. Bu 5 yil davomida 116 071,3 milliard so'mga yoki 77,1 foiz ga o'sish demakdir. Ayniqsa, 2020-2021-yillar orasida (31 294 milliard so'm), 2022-2023-yillar orasida (34 107,2 milliard so'm) va 2023-2024 -yillar orasida (23 648,6 milliard so'm) sezilarli o'sish kuzatilgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib

chiqqan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasi 2020-2024-yillar davomida barqaror rivojlanish bosqichida bo'lgan. Yalpi mahsulot hajmi muntazam oshib borgan bo'lsada, o'sish sur'atlarida biroz tebranishlar kuzatilgan. Bu esa, bir tomondan, sohadagi islohotlar natijasida erishilgan yutuqlarni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligini yanada jadal rivojlantirish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini anglatadi.

Iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri bu - mamlakatdagi investitsion faollik darajasi hisoblanadi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida qishloq xo'jaligining hajmi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjuddir. Ushbu bog'liqlikni ko'rsatib berish uchun biz Polinomial regressiya grafigi asosida O'zbekiston Respublikasida 2010-2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasini tahlil amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010-2025 -yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (trln. so'm) [8]

Ushbu diagrammada 2010-2025-yillar oralig'ida O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi hamda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar tahlil qilingan. Jumladan, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2010-2025-yillar davomida izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2010 -yilda bu ko'rsatkich 15,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 107,3 trln so'mga, 2020-yilda 245,0 trln so'mga va 2025-yilga kelib esa 493,7 trln so'mga etgan. Bu raqamlar mamlakatda investitsion faoliyatning jadal sur'atlarda o'sib borganligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida qishloq xo'jaligining hajmi nisbatan kam bo'lib, 2010-yilda 0,9 trln so'mni tashkil etgan. Keyinchalik bu ko'rsatkich 2015-yilda 3,6 trln so'mga, 2020-yilda 18,9 trln so'mga va 2025-yilga kelib 32,5 trln so'mga etgan. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq umumiy investitsiyalarga nisbatan sekinroq sur'atda o'sgan. Diagrammada keltirilgan polinomial trend chiziqlari ham muhim ma'lumotlarni bermoqda.

Umumiy investitsiyalar uchun

$$y = 3.2535x^2 - 13095x + 1E+07 \quad (1)$$

ko'rinishidagi kvadratik tenglama bilan ifodalangan trend chiziq $R^2 = 0,9768$ koeffitsienti bilan yuqori darajadagi ishonchlilikni ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur sohada investitsiyalar hajmi eksponentsial ravishda o'sishini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi investitsiyalari uchun esa

$$y = 0,2143x^2 - 862,38x + 867613 \quad (2)$$

formulasi bilan trend chiziq aniqlanib, $R^2 = 0,9256$ koeffitsienti ham ishonchlilikning yuqoriligini ko'rsatmoqda. Lekin, o'sish tendensiyasini davom ettirishi bashorat qilinsa-da, asosiy kapitalga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalarning o'sish sur'ati qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalarnikiga nisbatan ancha yuqori.

2015-2025-yillar davomida umumiy investitsiyalar hajmi 107,3 trln so'mdan 493,7 trln so'mga, ya'ni 4,6 barobarga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar esa 3,6 trln so'mdan 32,5 trln so'mga, ya'ni 9 barobarga oshgan. Bu raqamlar qishloq xo'jaligiga e'tibor ortganini ko'rsatsa-da, umumiy investitsiyalar hajmi bilan solishtirilganda hali ham farq katta ekanligini ko'rsatmoqda. 2017-2025-yillar oralig'ida umumiy investitsiyalarning o'sish sur'ati juda tez bo'lgan. Bu davrda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar o'z natijasini ko'rsatgani yaqqol ko'rinib turibdi. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 2010-yilda taxminan 5,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 6,6% ga etgan. Bu raqamlar qishloq xo'jaligining investitsion jalb qilish darajasi uncha yuqori emasligini ko'rsatmoqda. Bu esa mamlakatda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligiga jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish. Bu maqsadda qishloq xo'jaligining investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarga maxsus imtiyozlar berish va xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sektorida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini keng joriy etish orqali investitsiya salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu model davlat tomonidan yaratilgan normativ-huquqiy va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni xususiy sektorning moliyaviy resurslari va boshqaruv tajribasi bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. Natijada, moliyalashtirish manbalarining ko'lamini kengaytirish, investitsion xavflarni taqsimlash hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratish mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantirish. Bu yo'nalishda "aqlli qishloq xo'jaligi" (smart agriculture), sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va IoT (Internet of Things) texnologiyalarini joriy etish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi bevosita investitsion faollik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida agrar sektorni rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, investitsiya loyihalarining moliyalashtirish mexanizmlarida hamon muayyan tizimli va institutsional muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari asosida bir qator muhim xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Birinchidan, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligida investitsiya loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, ularning barqarorligi hamda moliyaviy vositalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga bog'liqdir. Ayni paytda bank kreditlarining ulushi nisbatan yuqori bo'lsa-da, ularning foiz stavkalari yuqoriligi va garov talablarining og'irligi investitsiya oqimlarini cheklab qo'ymoqda. Davlat budjeti mablag'lari va xalqaro moliyaviy

institutlarning grantlari esa ko'proq yirik infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirilmoqda, kichik fermer va dehqon xo'jaliklari esa moliyaviy inklyuziyadan chetda qolmoqda.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish mexanizmlarining muvaffaqiyati ko'p holatlarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh), agroklastlar, sug'urta mexanizmlari va lizing tizimlarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ushbu modelni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, mahalliy shart-sharoit va qonunchilik asosida implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, agrobank tizimini isloh qilish, kichik investorlarga mo'ljallangan subsidiya va grant dasturlarini kengaytirish orqali moliyalashtirishning qamrovini oshirish mumkin.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligidagi investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda zamonaviy metodologiyalardan foydalanish zarurati mavjud. Xususan, investitsiya rentabelligi, sof joriy qiymat (NPV), ichki foyda normasi (IRR), investitsiya qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlar asosida tahlillar olib borish orqali loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va xavf darajasi real baholanishi lozim.

To'rtinchidan, institutsional muhitni takomillashtirish, ya'ni yerga egalik va foydalanish huquqlari kafolatlarini mustahkamlash, investitsion faoliyatni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va investorlar uchun prognozli siyosat yuritish – sektorning uzoq muddatli investitsion jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5853-son, 2019-yil 23-oktabr, "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida".
2. Jahon banki. (2021). *Agricultural Finance and Investment in Emerging Markets*. Washington, DC: World Bank Group.
3. Food and Agriculture Organization (FAO). (2020). *The State of Food and Agriculture*. Rome.
4. Smith, J., & Thomas, L. (2020). *Investment Strategies in Agribusiness: Finance, Risk and Innovation*. Springer.

4. Mamatqulov, B. (2022). Qishloq xo'jaligi investitsiyalarining samaradorligini baholash metodologiyasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 3(45), 55-67.
6. Qodirov, A. (2023). Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'rni. *Agrar iqtisodiyot jurnali*, 2(11), 14-22.
7. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Agricultural Infrastructure and Financial Support in Central Asia*.
8. International Fund for Agricultural Development (IFAD). (2021). *Rural Development Report: Transforming Food Systems for Rural Prosperity*.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.